

UZLUKSIZ TA'LIM KLASTERIDA INTEGRATIV AMALIYOTNING NAZARIY
ASOSLARI

Gulmatova Lobar Aziz qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti ,
Pedagoika fakulteti, magistr,*

Annotasiya: *maqolada oliy ta'lim muassasalari o'ituvchilarinig pedagogik tasavvur va uning fazilatleri, kasbiy muhim fazilatlariga psixologik va pedagogik bilim, fan sohasidagi professionallik, kuzatish, pedagogik tasvirlash, rivojlangan nutq va pedagogik kasbni tanlagan kishi kelajakdagi muvaffaqiyatining eng muhim shartlarini yaxshi bilishi kerakligi, aniqligi ifodalangan*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, pedagogik tasavvur, nutq, kasbiy fazilat, psixologik va pedagogik bilim, isbotlash, ta'kidlash, o'rnatish, ob'ekt, fakt, samara, usul, kasbiy madaniyat.*

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ В
КЛАСТЕРЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.**

Аннотация: *В статье выражены педагогическое воображение и его качества, психолого-педагогические знания о профессионально важных качествах выпускников высших учебных заведений, профессионализм в предметной области, наблюдательность, педагогическая образованность, развитая речь и то, что человек, выбравший педагогическую профессию, должен хорошо знать важнейшие условия своего будущего успеха, быть точным*

Ключевые слова: *высшее образование, педагогическое воображение, речь, профессиональные качества, психолого-педагогические знания, доказательство, выделение, установка, объект, факт, результат, метод, профессиональная культура.*

**THEORETICAL FOUNDATIONS OF INTEGRATIVE PRACTICE IN THE CLUSTER
OF LIFELONG EDUCATION**

Abstract: *The article expresses pedagogical imagination and its qualities, psychological and pedagogical knowledge about professionally important qualities of graduates of higher educational institutions, professionalism in the subject area, observation, pedagogical education, developed speech and the fact that a person who has chosen a pedagogical profession should know well the most important conditions for his future success, be accurate*

Keywords: *higher education, pedagogical imagination, speech, professional qualities, psychological and pedagogical knowledge, proof, selection, installation, object, fact, result, method, professional culture.*

Hozirgi globallashuv sharoitida amaliy psixologiyaning shiddat bilan rivojlanishi jarayonida psixologik xizmat zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda psixologik xizmatni rivojlantirish borasida mustaqillikdan so'ng muayyan vazifalar bajarilgan bo'lsa-da, so'nggi ikki-uch yilda soha taraqqiyoti uchun misli ko'rilmagan darajada ishlar amalga oshirildi, deyish mumkin. Psixologik xizmat ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda katta ahamiyat kasb etadigan yo'nalishlardan biri bo'lib, inson, shaxs salomatligini, tarbiyalanuvchi, talaba va o'quvchilarning har tomonlama, komil inson sifatida rivojlanishini, ta'lim jarayonida shaxslararo munosabatlarning maqsadga muvofiqligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi va say-harakatlari natijasida nisbatan qisqa vaqt ichida ta'lim psixologik xizmatini amalga oshiruvchi mutaxassis – psixolog ommaviy va nufuzli kasblardan biriga aylanmoqda. Psixolog – ayni kunda jamiyat ehtiyojlarini qondirishda, yosh avlodning aqliy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan yangi kasbiy faoliyat turlaridan hisoblanadi. Ayni vaqtda psixologlar maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, turli, shu jumladan, rehabilitatsiya, korreksiya, rivojlantiruvchi, bolalar, o'quvchilar va yoshlarga, aholining turli qatlamlari vakillariga tibbiy-psixologik-pedagogik ko'mak berish yo'nalishidagi markazlarda faoliyat yuritmoqdalar. Dastlab, ta'limda psixologik xizmat tushunchasini oydinlashtirib olish zarur. Bu borada bir qator ta'riflar mavjudligiga qaramay, barcha olim va mutaxassislar tomonidan yagona, bir xil e'tirof etilgan ta'rif mavjud emasligini ta'kidlamoqchimiz. Bu esa o'ziga xos tarixga ega bo'lishiga qaramay, ta'limdagi psixologik xizmat psixologiya fanining rivojlanib kelayotgan murakkab amaliy soha, tarmog'idan biri ekanligidan dalolat beradi. Ta'lim psixologik xizmati – mamlakat ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bola, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga nisbatan yondashuv ta'lim psixologik xizmatining maktabgacha va xalq ta'limi tizimiga tegishli quyidagi yo'nalishlarini belgilab beradi: har bir yoshdagi bola bilan uning imkoniyatlari, salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida ishlarni amalga oshirish; – bolaning o'ziga xos, individual xususiyatlari – qiziqishlari, qobiliyati, ijodiy moyilligi va intilishlari, his-tuyg'usi, munosabatlari, hayotiy rejaları va hokazolarni rivojlantirish; – bola, o'quvchi maqsadga muvofiq rivojlanishi uchun (bog'cha, internat, maktabda) qulay psixologik muhit, iqlimni yaratish, bunda bir tomondan bolaning o'z tengdoshlari va yoshi kattalar bilan samarali muloqotini ta'minlash, ikkinchi tomondan bolaning ontogenez (hayoti davomi)dagi rivojlanish bosqichlarida uning uchun ahamiyatga ega faoliyat turlaridagi shaxsiy muvaffaqiyatga erishish vaziyatlarini namoyon qilib borish; – nafaqat bolalar, balki ularning ota-onasi, tarbiyachilari va o'qituvchilarini ham o'z vaqtida psixologik qo'llab-quvvatlash va ularga psixologik yordam ko'rsatish. Ta'kidlanganidek, ta'lim psixologik xizmati – davlat ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekan,

uning maqsadi – maktabgacha ta’lim va xalq ta’limi tizimidagi tarbiyalanuvchilar, o’quvchilarning psixologik salomatligini ta’minlash, asosiy vazifasi – barcha yosh davrlaridagi tarbiyalanuvchi va o’quvchilarning psixik, psixofiziologik va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, ko’maklashish. Bunda har bir yosh davridagi bolaning imkoniyatlarini risoladagidek namoyon qilish uchun maqbul psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratish zarur. Ma’lum darajada psixologlar har bir bolaning to’laqonli psixik va shaxsiy rivojlanishi uchun kafil bo’luvchi, o’ziga xosligini qo’llab-quvvatlovchi mutaxassislar sifatida namoyon bo’ladilar. Pedagogik amaliyotda (nafaqat pedagogik, balki hayotning boshqa jabhalarida ham) psixolog mutaxassislarga nisbatan talab, ehtiyojning oshib borishi, ular kasbiy faoliyati qamrovining kengayishi psixologlar va umuman, psixologik xizmatga doir metodik, tashkiliyboshqaruv mazmunidagi masalalar, muammolarni hal etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shunday ekan tan olish kerakki, ayni vaqtda hali to’liq shakllanib ulgurmagan, mamlakathududlar-tumanlar-ta’lim muassasalari miqyosida vertikal darajada ishi maqsadga muvofiq tarzda yo’lga qo’yilmagan, uzluksiz ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan ta’lim psixologik xizmatining kelgusi rivoji uchun ilmiy-metodik adabiyotlar yaratish, faoliyatining barcha jihatlarini tartibga keltirish borasida mutasaddilar, olimlar, mutaxassislar oldida bajarilishi lozim bo’lgan ko’p vazifalar turibdi. Mazkur vazifalar sirasiga psixologik xizmat tizimining yaxlitligi, bir butunligini ta’minlash ham kiradiki, bu barcha darajalarda quyidagilarni nazarda tutadi: – psixologik xizmat faoliyati maqsadi, vazifalari va mohiyatini aniq va bir xil tushunish; – faoliyat mazmunidan kelib chiqib, maqsadlarni amalga oshirishni huquqiy va moliyaviy jihatdan ta’minlash; – mahalliy davlat organlari, tegishli bo’linmalar va tashkilot hamda muassasalarning o’zaro aloqasini yo’lga qo’yish. Psixologik xizmat yaxlit tizimi faoliyati samaradorligiga kafolat – har bir bo’g’in, bo’linma o’zining konkret vazifalarini izchil, aniq bajarib borishlari. Umuman olganda, xizmat o’zi nima? “O’zbek tilining izohli lug’ati”da “Xizmat” tushunchasiga “1. Biror ish yoki mehnat bilan shug’ullanish; biror ishni bajarish; ish, mehnat. 2. Biror tashkilot, muassasa yoki korxonada bajariladigan ish, vazifa” deya ta’rif berilgan. Xizmat insonlar faoliyatining muayyan yo’nalishi bo’lib, psixologik xizmatda amaliyotchi psixologlar ishlashadi. Ta’lim tizimidagi psixologik xizmat to’g’risida mulohaza yuritganimizda, u mazkur tizimning bir qismi, unsuri ekanligini nazardan qochirmasligimiz lozim. Ta’lim tizimining boshqa xizmatlari (pedagogik, boshqaruv, ijtimoiy, tibbiy, huquqiy, ovqatlanish, gigiyena va h.k.) kabi psixologik xizmatning ham asosiy vazifasi yoshlarning ta’lim-tarbiyasi bilan bog’liq muammolarni hal etishga yo’naltirilgandir. Ta’lim tizimining samaradorligi undagi xizmatlar va tegishli mutaxassis majburiyatlarining qay darajada amalga oshirilayotganiga bog’liq bo’ladi. Biroq bunda xizmatlarning har biri, shu jumladan psixologik xizmat ham ta’lim tizimining umumiy maqsadlaridan tashqari professional tayyorlangan mutaxassislar amalga oshiradigan o’z konkret maqsad, vazifalariga egadir. Ta’lim psixologik

xizmatida bunday mutaxassislar pedagogpsixologlar hisoblanishadi. Pedagog-psixologlar – amaliyotchi psixologlar bo‘lib, ta’lim tizimidagi psixolog amaliyotchilardir. Ma’lumki, amaliyotchi – nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llab, mustahkamlovchi mutaxassisdir. Shunday ekan, nazariy, ilmiy bilimlar har qanday amaliyotning poydevori, asosi hisoblanadi. Pedagog-psixolog – oliy psixologik ma’lumotga ega (kasbiy yoki pedagogik qayta tayyorlovdan o‘tgan) va bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan mutaxassis. U ma’lum bir ta’lim muassasasida ishlab, shu bilan ta’limning yaxlit tizimiga xizmat qilishda ishtirok etadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ta’lim psixologik xizmati hozirgi vaqtda mamlakatimizda jadal rivojlanish bosqichiga kirib, psixologiya fani va amaliyotining maxsus yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishi va rivojlanishida xorij olimlari bilan birga respublikamiz olimlarining ham hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, B.G.Ananyev, L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, V.V.Davidova, A.N.Leontyev, M.I.Lisina, V.S.Merlin, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov, I.V.Dubrovina, Y.M.Zabrodin, A.D.Andreyeva kabi rossiyalik psixologlar qatorida E.G‘oziyev, B.Qodirov, V.Karimova, SH.Barotov singari o‘zbekistonlik olimlar ilmiy tadqiqotlari, asarlari bilan ushbu soha takomilini yuqori bosqichga ko‘tardilar. Psixologiya fanida amalga oshirilgan fundamental nazariy tadqiqotlar xulosalariga ko‘ra, inson psixikasi (ontogenez va filogenezda) taraqqiyot, rivojlanish mahsuli hisoblanadi. Insoniyat tomonidan yig‘ilgan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayonida psixik taraqqiyot, rivojlanish amalga oshadi. Shaxs bir butun psixologik tuzilma bo‘lib, insonning ijtimoiy ong va xulq-atvor shakllarini o‘zlashtirishi jarayonida tarkib topadi. Chaqaloq tug‘ilgan soniyalardan shaxs sifatida shakllanish jarayoni boshlanadi va bu bolaning psixik rivojlanishi bilan birga kechadi. Ta’kidlash lozimki, psixikaning rivojini nafaqat uning o‘sishi, balki miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi bilan bog‘liq turli evrilishlar bilan bog‘liq holda ham qabul qilish zarur. Amaliy psixologiya rivojida ayniqsa, L.S.Vigotskiyning fundamental mazmundagi madaniy-tarixiy nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Olimning g‘oyalari hozirgi kunga qadar bola psixik taraqqiyoti to‘g‘risidagi o‘ziga xos hayratomuz, zamonaviy nazariy tasavvurlar hisoblanadi. G‘oyalarning asosligi psixologlar tomonidan turli yoshdagi bolalar bilan o‘tkazilgan amaliy tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. L.S.Vigotskiy nazariyasining eng muhim tarkibiy qismlari quyidagi g‘oyalarda namoyon bo‘ladi: – bola dunyoqarashi va shaxsining bosqichma-bosqich takomilida madaniy rivojlanish o‘rni; – rivojlanishda ta’limning ahamiyati; – har bir yosh davrida “rivojlanishning ijtimoiy ko‘rinishi” bola va muhit o‘rtasidagi munosabatlarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi. Ilmiy va amaliy faoliyatda yetakchi psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi nazariyalarga to‘liq suyanish mumkinligi ta’lim amaliy psixologiyasida o‘z isbotini topgan. Bola faoliyati – uning psixik rivojlanishida asosiy shartlardan. Bola aynan o‘zi amalga oshirgan motivatsiyalashgan faoliyati natijasida uning shaxsi rivojlanishi amalga oshadi. Ta’kidlash joizki, bu shakllanish eng avvalo, ontogenezning muayyan bosqichida

yetakchi hisoblangan hamda bolaning individual-psixologik xususiyatlari tarkib topishi va psixik jarayonlari mazmunini belgilaydigan faoliyat turi (muloqot, o‘yin, o‘qish, mehnat) ta’siri ostida kechadi. Yetakchi faoliyat ajratib ko‘rsatilishining sababi shundaki, uning o‘sib kelayotgan inson psixikasi rivojiga ta’siri nihoyatda kattadir. Shu munosabat bilan ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarida hali-hanuz bola nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratilayotganini ta’kidlamoqchimiz. Albatta, tafakkurni rivojlantirish kerak, biroq bunda faqat bir usul ustuvorlik qilmasligi lozim. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni birinchi o‘ringa qo‘yish tarbiyada axloqiy shaklbozlikka, ta’lim jarayonida esa bilimlarni yuzaki o‘zlashtirishga olib kelishi mumkin. S.L.Rubinshteynning ta’kidlashicha (1976), kattalar bolaning faoliyati davomida mustaqil ravishda o‘zlashtirishini chetlab o‘tib, ongiga har qanday ma’lumotlar va axloqiy meyorlarni “tiqishtirishga” urinishi o‘sib kelayotgan inson aqliy rivojlanishi, shaxsiy sifat va xususiyatlari tarkib topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bola tomonidan har qanday faoliyatning o‘zlashtirilishi kattalar bilan muloqotda, bevosita ularning rahbarligi ostida amalga oshirilganda samarali kechadi. Kattalar bilan muloqot bola psixik va shaxs sifatidagi rivojida muhim omildir. Har qaysi yosh davridagi kattalar bilan muloqot shaxs shakllanishi jarayonida o‘ziga xos funksiyani bajaradi. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida kattalar bilan muloqot bola atrof-olam haqidagi bilimlarni tushunib, o‘zlashtirishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunday muloqotlar jarayonida boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish, ularga hissiy munosabat ehtiyoji yuzaga keladi, psixik jarayonlar, predmetli-manipulyativ faoliyat rivojlanadi va 6-7 yoshlardagina bolada o‘z shaxsiy kommunikativ faoliyati yuzaga keladi. O‘smirlik davrida tengdoshlari bilan muloqot qilish ehtiyojlari birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Jamoada qabul qilingan meyorlarni ongli ravishda qabul qilish yoki qilmaslik, boshqalar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, o‘zgalarning shaxsiy sifat va xususiyatlariga moslashish ushbu muloqot, munosabatlar natijasida shakllanadi. Aynan maktabgacha va maktab davrida muloqot va bolaning o‘zini o‘zi anglashi, o‘ziga o‘zi bahosi, o‘zini o‘zi yo‘naltirishi singari xususiyatlar shakllanishi, rivojlanish o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yuqori maktab yoshida kelajak, hayotiy istiqbolni belgilab olish bilan bog‘liq muammolar vujudga kelishi natijasida kattalar bilan muloqot ayniqsa muhim ahamiyat kasb etib boradi. Shunday qilib, muloqotga ehtiyoj insonning asosiy ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, juda erta vujudga keladi va doimiy ravishda rivojlanib boradi. Biroq tarbiya amaliyoti, tajribasi va maxsus tadqiqotlar natijalarining shahodat berishicha, mazkur ehtiyoj lozim darajada qondirilmaligi oqibatida ta’lim jarayonida ham ko‘pincha ko‘zda tutilgan samaradorlikka erishilmaydi. Aksariyat bolalar va maktab o‘quvchilarida kattalar bilan norasmiy muloqotga nisbatan ehtiyoj qondirilmagani sababli ularda yuqori darajadagi xavotirlanish, o‘ziga ishonmaslik, o‘zini o‘zi baholash darajasining pastligi, ijtimoiy-psixologik moslashish, shaxsiy sifatlar rivojlanishidagi murakkabliklar ko‘zga tashlanadi. Xullas, yuqoridagilardan kelib chiqilsa, shaxsiy va kasbiy

muvaffaqiyatlarga erishish har bir psixik sogʻlom insonning qoʻlidan keladi. Inson bolalik va yoshlik davrini psixik rivojlanish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq yashab oʻtishi zarur. Buning uchun bola tugʻilganidan boshlab, har bir yosh davri imkoniyatlarini toʻliq yuzaga chiqaradigan qilib hayoti rejalashtirilishi, shart-sharoitlar yaratilishi va psixologik xizmat imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanilishi kerak. Shundagina har bir bosqich bola, shaxs uchun muhim davr sifatida kelajakdagi zafarlari, muvaffaqiyatlari uchun platsdarm, maydon vazifasini oʻtaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni, Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-60-son farmoni, 2022 yil 28 yanvar. lex.uz
3. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimentai psixologiya / oʻquv qoʻllanma. -T.: “Tafakkur-Boʻstoni”. 2011. 304 bet.
4. Абдуллаева, Г. О. Диагностика в современной профориентации: проблемы и тенденции развития/ Вестник Кабардино-Балкарского государственного университета: Журналистика. Образование. Словесност. – 2021. – Т. 1. – № 1. – С. 84 – 94.
5. Асмолов А. Г. Как проектировать универсальные учебные действия: от действия к мысли / Под ред. А.Г. Асмолова. – М., 2008.
6. Toshtemirova S. A. Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishda tashxislash amaliyotining ahamiyati // INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (24th MAY, 2022) – BELARUS, MINSK: “CESS”, 2022. Part 86-93 p.
7. Akhmedov, B. A. (2023). Improvement of the digital economy and its significance in higher education in tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 12, 18-21.
8. Ахмедов, Б. А. (2021). Таълимда ахборот технологиялари фанининг модулларини ўқитишда кластерли-инновацион технологиялардан фойдаланиш тамойиллари. *Oʻzbekiston respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi*, 441.